
SOLIQCHI - TADBIRKORGA KO'MAKCHI



Xabaringiz bor, joriy yil 16 mart kuni Prezidentimiz Davlat soliq qo'mitasiga tashrif buyurib, soliq sohasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida soliq organlari tadbirkorlar bilan uchrashib ularni muammolarini tinglashi, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni tushuntirishi, ularga ko'makchi bo'lishlari yuzasidan qator topshiriqlar bergan edi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi, shuningdek, "Soliqchi-ko'makchi" tamoyili asosida soliq to'lovchilarga yanada sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Farg'ona viloyati DSB mutaxassisilari hamda tuman DSI rahbaryati tomonidan tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil yanvar-may oylari davomida tuman Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan 761 ta tadbirkorlik sub'ektlarini qiynayotgan muammolari o'rganildi. Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan 519 ta tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS to'lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab berganlaridek, tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

Zuxriddin MIRZAYEV,

Qo'shtepa tuman DSI boshlig'i.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-06-14 16:33:41